



"NOJIY KATTAQO'RG'ONiy IJODIDA XARAKTER MASALASI"

Eshquvvatova Farangiz Oroljon qizi
Samarqand davlat universiteti magistranti

Annotatsiya:

Mazkur tezisda mashhur o'zbek adibi Nojiy Kattaqo'rg'oniy ijodida xarakter masalasi chuqur tahlil qilinadi. Muallif asarlaridagi obrazlar taqdiri, ularning ruhiy holati va ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlari zahirida aks etgan insoniy fazilatlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, yozuvchining har bir asarida qahramon xarakterini yaratishdagi o'ziga xos uslubi, badiiy mahorati va yondashuvlari tahlil qilinadi. Kattaqo'rg'oniy ijodining o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni va zamonaviy yoshlar uchun ahamiyati ham ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Nojiy Kattaqo'rg'oniy, xarakter masalasi, obraz tahlili, o'zbek adabiyoti, badiiy mahorat, yozuvchi uslubi, ijtimoiy muhit.

Kirish

XIX asr Buxoro adabiy hayotida bir necha o'ziga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi. Birinchidan, zullisonaynlik an'anasining davom etishi ko'zga tashlanadi. Ikkala tilda ibratli asarlar yaratishda, xususan, Turdi Farog'iy, Mujrim-Obid, Vola, Shavqiy, Shukuriy, Xiromiy, Joniy kabi ko'plab ijodkorlar yaratgan adabiy merosni e'tirof etish mumkin. Ikkinchidan, boshqa xonliklardan farqli o'laroq, Buxoro amirligida markazlashgan adabiy muhitning yo'qligidir. Ijodiy jarayon tarqoq holda mavjud edi. Diniy mazmun-mohiyat, shuningdek, tanqidiy adabiyotning yetakchiligi ham shular jumlasidan. XIX asr Buxoro adabiy muhiti boshqa ikkala xonlik adabiy muhitidan farqli holatda shakllandi. Ya'ni Xiva va Qoqon xonligida markazlashgan adabiy muhit shakllangan bolib, xon saroyi atrofida ijod qilishgan bolsa, Buxoro adabiy muhiti birmuncha tarqoq holatda shakllangan edi. Buxoroda Kattaqorgon va Urgut adabiy maktabida ijod qilgan bir qancha ijodkorlar mazkur adabiy muhitni shakllantirgan edi desak mubolaga bolmaydi. XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Kattaqorgonda bir qancha ijodkorlar olimlar, tarixchilar, nosirlar, madaniyat va san'at arboblari ham mana shu maktabdan yetishib chiqdi. Bu muhit



vakillaridan eng mashhurlari Sofi Olloyor, Miriy, Shavqiy, Ahqar, Noqis kabilar keng ommaga tanish bolsalar, Hakima, Mutriba, Abduhamid Majidiy, Mahdiy kabi shoirlar qatorida Qori Muhammadrasul Zubaydullaxoja ogli Nojiy ham adabiyotshunos olimlar nazaridan chetda qolmagan.

Asosiy qism

Qori Muhammadrasul Zubaydullaxoja ogli Nojiy 1895-yilda Kattaqorgon shahrining Mahalla guzarida ziyoli oilada tugilgan. Shoirning otasi va oilasi haqida Kattaqorgonlik Zubaydullaxoja Qudratillaxoja ogli oz davrining oqimishli kishilaridan hisoblanib, bir necha yillar Naqibbek madrasasida imom-xatib, shahar qozisi bolgan, dehqonchilik bilan shugullangan. Qatagon qillari azob va qiynoqlarga dosh bera olmay turmada vafot etgan. Zubaydullaxojaning besh farzandi, tort ogil, bir qiz, hammasi madrasa korgan, oz davrining bilimdon kishilaridan bolgan. Muhammadrasul dastlabki ta'limni otasidan, songra Sofiguzar mahallasidagi qorilik maktabida Qori Oroq va Qori Zokir domladan Qur'oni karimni toliq ozlashtiradi. Shahardagi Naqibbek madrasasida, 18 yoshga tolga, Buxoroning Mirarab madrasasida falsafa, riyoziyot, ilmi nujumni, fors-tojik va arab tillarini organadi. Shu davrda Hoib taxallusi bilan she'rlar mashq qilgani haqida ma'lumotlar bor. Uning dastlabki gazallari 1914-yilda chop etilgan Mahdiy bayozidan orin olgan. Qori Muhammadrasul 1920-yilda Buxorodan qaytib shaharda imomlik, tijorat ishlari bilan shugullanadi, keyinroq xalq sudida kotiblik qiladi. Osha davrdagi she'riyat majlislarida Muhammadrasul ham tengdosh shoirlar qatori ishtirok etardi. Mu majlislarga Ahmad Ahqar, Noqis kabi kozga koringan shoirlar rahbarlik qilishardi. Muhammadrasul 27 yoshida oz davrining ziyoli, badavlat kishilaridan bolgan, otasining dosti Gulom Poshshaning qiziga uylanadi. Gulom Poshshaning ogli bolmagani uchun uning uyida ichkuyov bolib yashaydi. 1929-yilda yurtimizning dastlabki qirgini - quloq qilish kampaniyasi boshlanib, oz davrining ilgor, boy-badavlat, oziga toq kishilari begona yurtlarga badarga qilinishni boshlaydi. 1930-yilda Muhammadrasulning qaynotasi Gulom Poshsha ham qamoqqa olinadi va bedarak ketadi. Bundan xulosa chiqarmagan, qaynotasining hovlisidagi ayollarga bosh bolib yashayotgan, Muhammadrasul ham, uning xotini ham 1931-yilning yozida qamoqqa olinadi. Yurtidan uzoqqa, olis va sovuq olkalarga



majburan olib borilib ishlatiladi. U yerdagi sharoitsizlik, sovuq va zax havo, zoravon boshliqlar tomonidan kaltaklanishlardan kopchilik olib ketgan, janozasiz, kafansiz, umumiy gorlarga komilgan. Ularning ichida Muhammadrasulning xotini ham bore di. Muhammadrasul zehni tezligidan tez orada rus tilini organib oladi va mahalliy aholi ichidan mahkumlarga boshliq qilib qoyiladi. Bu haqda Muhammadrasul oqliga aytib bergan quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

Surgundagilar orasidan tanlab olib qoyilgan rahbarlarga ham juda qiyin edi. Har kuni kechqurun komendatura boshligI huzurida hisob-kitob yigilishi bolib turgan. Arzimagan gap uchun, masalan birorta kishi kasalligi tufayli ishga chiqolmasa yoki kimdir kunlik rejadagi ishni uddalay olmasa, brigadier-u yuzboshilarni sokib, istagancha haqoratlagan, kolxoz omboriga qamab qoygan. Togri ish boshidan kelgan brigadier, yuzboshi ochlay shu yerda qamalib yotib, ertalab yana ishga ketavergan. Bunday hollar deyarli har kuni muntazam takrorlanib turgan” [80; 315-bet].

Bu davrlar haqida shoir bir gazalida shunday deydi:

Vatan gami meni ra’no qadimni dol etgan,

Firoq shiddati zebo tanimni nol etgan.

Men oz gamim bilan ovoraman birovlar uchun,

Xayol surmagimi dahr bexayol etgan.

Kozumga zarracha yoq yoru oshnoyu zamon,

Zamona kulfati naylay, meni bu hol etgan.

Kozum qarosi oqardi visol umidida,

Visol umidini olam menga mahol etgan.

Hayot bogida nash’u namo umidim yoq,

Umidi nash’u namo Nojiyga zavol etgan [79; 24-bet].

Osha yillari vatanidan nohaq badarga qilingan odamlar ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan qiynalgan, xorlangan, sha’ni poymol qilingan edi. Odamlar eng zarur marosimlarni ham otkaza olmagan. Nikoh oqitish, bolalarni xatna qilish qilish kabi udumlar mutlaqo mumkin bolmagan. Ular faqat maxfiy holda kechalari amalga oshirilgan. Qori Muhammadrasul ana shunday tadbirlarni tashlik etish va otkazishga ehtiyotkorlik bilan bosh-qosh bolgan. Ana shunday qatagon yillarida Muhammadrasulning ijodi deyarli toxtab qoladi. U surgunga faqat yoshligidan hamroh bolgan Qur’oni karimni korpaning ichiga solib olib yurgan. Boshqa



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th October, 2025

kitoblari, yozgan she'rlari batamom yoqolib ketgan. Shoir yurtiga ellik yoshdan oshgandagina qaytish sharafiga muyassar boladi.

Shoir yana bir gazalida el qanoat etguday fazl-u kamolim bola turib qaro baxtimni korginki, olamda bir kun xush bolmadim deydi:

Falak bedodidin yoringa arz etmak xayolim bor,

Quloq solsa, desam bir-bir firoq ichra ne holim bor.

Kozim namlig, dilim gamlig, qadim xam bori mehnatdin,

Havodis zulmidin sonsiz meni ranj-u malolim bor.

Qaro baxtimni korgil, bolmadim olamda bir kun xush,

Agarchi el qanoat etgudek fazl-u kamolim bor.

Falakdin yora yorimdin kima arz etdugim bilmam,

Ajoyib tundxo bir sohibi ganju dalolim bor.

Buyukdur himmatim, Fagfur-u Hotam minnatin chekmam,

Qazo toshi ushatgan may icharga bir sopolim bor.

Ushoq yoshlarga qadr-u qimmatim yoq zarracha hargiz,

Oqargangarchi gamdin ishq aro soch-u soqolim bor.

Jafojolarga yor olmoq, vafo kutmak hamoqatdur,

Bu soz tasdiqiga, Nojiy, egilgan qaddi dolim bor.[79; 59-bet]

Muhammadrasul surgunda paytida 1932-yilda 82 yoshdagi otasi Zubaydullaxojani qamoqqa oladilar. U Kattaqorgon turmasida yotadi. Guvohlarning ma'lumot berishicha, osha yillari turmada har kuni kameralarga vrach kirib kuzatuv otkazar ekan. Turli bahonalar, yolg'on tashxislar bilan kuniga bir necha kishini turma kasalxonasiga otkazilarkan. U yerdan esa hech kim tirik chiqmas ekan. Turmada aravakashlik qilgan bir kishi Zubaydullaxojaning kasalxonaga otkazilgani haqida ogli Muhammadaminga xabar yetkazadi va kechasi murdalarni komishga ketayotgan aravakash Zubaydullaxoja jasadini egalariga topshiradi. Boshqa yuzlab aziz insonlarning jasadlari xandaqlarga, quduqlarga tashlanib, komilib ketgan.

Zubaydullaxojaning ichkari-tashqari hovlisi zoravon hukumat tomonidan tortib olinib, boshqa kishilarga bolib berilgan. Natijada otameroq hovli bolalarining birortasiga nasib etmagan.

Surgundan qaytgandan keyin ham Qori Muhammadrasulni tinch qoyishmaydi. Ta'qiblar, tekshi-tekshirlar davom etadi. Bulardan bezgan Muhammadrasul 1949-



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th October, 2025

yilda Kichikkorpa qishlogiga kochib ketadi. On besh yil osha yerda yashaydi. Ammo Muhammadrasulni shu yerdayam qoyishmaydi. Shoirning ogli osha yillarni eslab: Dadamning kitoblarini tez-tez yashirib qoyardik. Qoshnimiznikiga otkazardik. Ozi 5-10tagina kitobi bor edi xolos. Oshandan ham ochiq-oydin foydalana olmasdilar, qorqardilar” [79; 320-bet].

Qori Muhammadrasul 1953-yilda ukasi va qaynsingillarini korib kelish maqsadida Samarqandga boradi. Shohizinda ziyoratida tilovat qilib turgan vaqtda ozlarini moliya inspektori deb tanishtirgan ikki kishi shoirning chontaklarini tintib, sakkiz som pulni korib, bu yerga ishlashga kelgansan deb dagdaga qilib, unga uch yuz ellik somlik soliq chiqartiradi. Oz davrida bu juda katta pule di. Muhammadrasulning najor istab qilgan barcha harakatlari zoye’ ketadi. Rozgoridagi birgina qoramoli va qarindosh, yor-dostlardan qarz olib soliqni tolashga majbur boladi.

Muhammadrasul umri zoye’ ketgan osha mash’um yillar haqida ozi yozgan tarjimayi holida: 27 yoshga yetganimda bir davlatmand kishining qiziga uylanib, bir qancha aziyatlarga duchor boldim. On besh yarim yil nohaq va notogri surgunda yurdim. Bol-u parim tokildi. Qolimda va tab’imda hech narsa qolmadi”, - deb yozadi. Shunday nochorlik girdobida qolgan shoir endi oziga Nojiy (najot izlovchi) taxallusini qollay boshlaydi:

Yoshi ottiz beshga yetgach holati barnoligi,
Kordi zolimlar qolidin tuhmat-u bohton dadam.
Betamizlar ta’nasidin tobmadi garchi najot,
El madorosi uchun Nojiy laqab qoygon dadam.

1964-yilda shoir Kattaqorgon shahriga kochib kelib, ilohiy ilmlar va badiiy ijod bilan shugullanadi. Nojiyni tanigan kishilarning ma’lumot berishlaricha, diniy bilimga ega bolgan, qoriligi sababli korgan azob-uqubatlari, kamsitish, xorlashlaridan pichoq suyagiga qadalgan vaqtlar, Axir men nima qilishim kerak, shu zamonda tugilgan bolsam, shu zamonda oqib mulla bolgan bolsam, endi kochaga chiqib aravakashlik qilishim kerakmi?, - der ekanlar.

Afsuski zamonaning sabr-u saboti yoq,
Zolim falakning kimsaga hech iltifoti yoq,
Hech kimni bu jahonda baqolig hayoti yoq,
Jonlarning bu ajalning qolidan najoti yoq,



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th October, 2025

Az baski zolim ahlini hargiz uyoti yoq, - she'rlarida ana shu zamondoshlarining suvratlarini chizgan bolsa ajabmas.

Tinimsiz ta'qiblar, quvginlar, sorab-surishtirishlar bois koziga na yor, na tiriklik, na oshno koringan paytda bu holning sababi zamona kulfati deya to'g'ri xulosa chiqaradi shoir. Ammo Nojiyning hayotidagi yagona yorug'lik, munavvarlik ulug' shoirlar asarlarini mutolaa qilish, ularning gazallariga muxammaslar boglash, yangi-yangi gazallar yozish edi. Nojiy ko'plab ozidan oldin otgan va zamondosh shoirlarning, xususan, Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy, Shavqiy, Miriy, Amiriy, Feruz, Vidoiy, Chustiy, Ummat Xolis, Salohiy, Erkin Vohidov gazallariga muxammaslar boglagan. Bu haqda keyingi boblarda batafsil toxtalamiz.

Shoirning 36 yoshgacha yozgan asarlari yoqolib ketgan bolsa, surgundagi hayotida ham ijod bilan shugullana olmagan. Uning bizgacha yetib kelgan ijodiy ishlari asosan keksalik yillarida yaratilgan.

Nojiy Shayx Sa'diy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Miriy asarlarini ko'p mutolaa qilgan. Shu bilan birga shogirdlariga nihoyatda muruvvatli bolgan. Shoirning xonadonida Sharof Qobulov (Xolis), Nizoiddin Zokirov (Soid), Rozimurod Teshayev (Safoiy), Samariddin Sirojiddinov (Sirojiy) kabi shogird shoirlarning qadami uzilmagan.

Xulosa:

Qori Muhammadrasulning xotini vafot etgandan song surgundagi oila a'zolaridan ayrilgan Fotima degan ayolga uylanadi. Ulardan bir ogil va ikki qiz korgan. Birinchi xotinidan korgan, surgunga ketayotganda xolasida qolgan qizi Ruqiya 1999-yil 75 yoshida vafot etgan. Nojiyning ogli Abdulaziz Zubaydullayev oqituvchilik kasbini tanlagan. Ko'p yillar Kattaqorgon xalq ta'limi bolimida mas'ul lavozimlarda faoliyat korsatgan. Xalq ta'limi a'lochisi, Birinchi darajali Sog'lom avlod uchun ordeni sohibi. Bugungi kunda nafaqada. Otasi Nojiyning adabiy merosini toplash, arab yozuvidan bugungi yozuvga ogirish, tartib berish va asrash ishlari bilan mashgul. Shoirning kenja qizi Nazira ham oqituvchilikdan nafaqaga chiqqan. Qizi Rohilabibi amakisi Muhammadamin Zubaydullayev xonadoniga kelin bolgan. Shoir xotirasini abadiylashtirish, ijodiy merosini targ'ib-tashviq etishda kuyovi Polatxo'ji va ogli Abdulaziz Zubaydullayevlarning xizmatlari katta.



Qori Muhammadrasul Zubaydullaxoja ogli Nojiy 1985-1986-yillarda shahar jome' masjidining imom xatibi vazifasini bajargan. U 1989-yilda 95 yoshida vafot etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмонова М. Собир Абдулла (ҳаёти ва ижоди) / Монография. – Тошкент: Фан, 1980. – 166 б.
2. Абдурахмонова М. Собир Абдулла. – Т.: Фан, 1980. – 166 б.
3. Адабий турлар ва жанрлар. Уч томлик. 2-том. Лирика. – Тошкент: Фан, 1992. – 248 б.
4. Абдусаматов Х. Мавлоно Ҳабибий. – Т.: Ғ.Ғулом нашриёти, 1977. – 108 б.
5. Адабиёт энциклопедияси. Тузувчи: Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: МУМТОЗ СЎЗ, 2015. – 664 б.
6. Аристотель. Поэтика / Русчадан М.Маҳмуд таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 152 б.
7. Афоқова Н. Жадид шеърини поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2005. – 140 б.